

**Boshlang'ich ta'lim o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi Nurova Yulduz
Ubaydullayevna**

Ona tili- millatning ko'rki.

Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni arab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni o'zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e'tiborimizdan chetda qolmasligi zarur.

Sh.M.Mirziyoyev

O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga til orqali, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir. Bizga ma'lumki, o'zbek xalqi azal-azaldan o'z ona tilida so'zlashib kelsa-da, uni dunyoga chiqara olmadi, e'tirof etolmadi. O'g'ir va tahlilkali bir vaziyatda, Davlatimiz mustaqil bo'lmasdan turib, 1989-yil 21-oktabrda milliy tilimizga Davlat tili maqomining berilishida birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov jonbozlik ko'rsatib, bosh-qosh bo'ldi. O'zbekiston hududida barcha rasmiy yozishmalar o'z ona tilmizda amalga oshiriladigan bo'ldi. Ko'p o'tmasdan yozuvimiz ham nutqiy imkoniyatlarimizga moslashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. 2016-yil 13- mayda Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universiteti tashkil etildi. Bu ham o'zbek tili va xalqiga ko'rsatilgan e'tibor va e'tirofning yuksak namunasidir!

Har bir xalqning, har bir davlatning milliy o'zligini belgilab beradigan bu uning ona tilidir. Inson o'z ona tilini puxta egallamay turib, o'zga tilda yuksak cho'qqilarga erisha olmaydi. Chunki ona tili insonning menligini, o'zligini namoyon etadi. Ona tilini ulug'lash, asrab-avaylash o'sha tilda so'zlashadigan har bir insonning burchidir.

Til bizga in'om etilgan so'zlash imkoniyati asosida kishilarning birga mehnat qilishi jarayonida o'zaro muloqotda bo'lish zaruriyati, ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan. Ona tili kishining bir-birini tushunishiga, yashash vositasini topish va yaratishda birlashishiga yordam beruvchi vositadir. Buyuk adiblarimiz til to'g'risida juda ko'p o'zlarining hikmatli so'zlarini kelajak avlod yoshlariga ibrat sifatida ta'kidlab o'tishgan. Jumladan, Hazrat Alisher Navoiy:

Til bu chamanning varaqi lolasi,

So'z dururidin bo'libon jolasi.

Ko'ngil qulfi maxraning qulfi til,bu qalb xazinasining kaliti so'z bil!

Til millatning buyuk boyligi,bebaho xazinasini,tuganmas mulkidir.Rossiyalik tilshunos olimi,professor A.M.Kozlyanina "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibadordir" deb tilimizga yuqori baho beradi.

Til millatning bosh belgisi sanaladi. Til bor-millat bor. Til yo'q- millat yo'q. Istiqlol unut bo'lgan davlatchiligimizni tikladi, yo'q bo'lishga mahkum qilingan tilimizni, millatimizni asradi va aziz qildi. Shu tufayli o'zbekning ma'naviy va moddiy boyliklarini butun dunyo tanidi,tan oldi.

Hozirgi vaqtda jamiyat yashin tezligida jadal rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish kelajak yoshlarini jahon bilan hamnafas yashashga undaydi. Turli chet tilarini o'rganib, o'z bilimlari orqali chet mamlakatlarda bilim va malakalarini oshirib qaytishmoqda. Albatta bu yurtimizning yuksalishiga zamin yaratadi. Lekin xalqimizda bir naql bor:"Guruch kurmaksiz bo'lmas" deganlaridek,ayrim qo'shtirnoq ichidagi yosh avlod o'z ona tilidan hazar qilib, o'zga tillarda so'zlashishga harakat qilishadi. G'arb madaniyatiga taqlid qilgan holda kiyinishga,soch turmaklarini shu zaylda turmaklashga urunayotganlar ham yo'q emas oramizda. Axir shu yoshlarga qarata ey farzand, sen Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, To'maris, Nodira,Uvaysiylar avlodisan degim keladi. Vatan muqaddas! Ona tili ona so'zi bilan yanma-yon tarzda qo'yib aytiladi, quloqlarga ohangrabodek hush yoqadi. Shu bir kaftgina tuproq uchun qancha insonlar jon olib jon berishgan. Ona tilimizni,milliy o'zligimizni anglash, yurtimizni yuksak marralar sari butun dunyoga tanitish kelajak yosh avlod farzandlari qo'lidadir.Shunday ekan, fukrimni yakuni sifatida quyidagi misrani yozmoqchiman.

Ona zamin tuprog'ida qolgan tilim,

Qodiriylar yuraklari tilim- tilim.

Xalqim bo'l deb,o'zligini topgan tilim,

Ota meros,ona meros o'zbek tili.

Navoiyni bellashtirib yo'lga chiqqan,

Zar qalam-la butun dunyo qamrab olgan.

Istiqbolning ko'chasida porlab turgan,

O'zbekimning o'zligini bergan tilim!